

MAKTABGACHA TA'LIM SAMARADORLIGINI OSHIRISHDA INTEGRATSIYALASHGAN TEXNOLOGIYADAN FOYDALANISH

Ne'matullayeva Matluba Qosimovna

Andijon shahar pedagogika kolleji

Umumkasbiy fanlar kafedrası o'qituvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada maktabgacha ta'lim sohasida olib boriladigan islohatlarning keng talqini, integratsiyalashgan ta'limdan o'rinli foydalanish, zamonaviy ta'lim texnologiyalarni maktabgacha ta'lim sohasida qo'llash hamda mutaxassislarning ta'kidlashicha, maktabgacha ta'lim tashkilotlariga integratsiyalashgan ta'limni joriy etish nafaqat mumkin, balki zarurligi haqida ma'lumotlar berilgan.

Kalit so'zlar: Maktabgacha ta'lim va tarbiya, bola, intergasiyalashgan ta'lim, integrasiya, tizimlashtirish, mavzulararo integratsiya, predmetlararo integratsiya, transpredmetli integratsiya

Kuchli axborot bosimi ostida o'zini va olamni anglashga urinayotgan besh-olti yoshli bolakaylar tafakkuri, dunyoqarashi, nuqtai nazari qanday tarkib topib, rivojlanadi? Bu jarayonga axborotlar, ma'lumotlar oqimi orqali ta'sir ko'rsatish samarali kechadimi yoki ilm-fan vositasida muayyan tizimli ta'sir samaraliroqmi?

Bu kabi savollarga XX asrning oxirgi o'n yilliklarida dunyo olimlari kibernetik, fizik, matematik qonuniyatlar asosida olamni bilish, o'zlashtirish haqidagi falsafiy talqinlar orqali javob berishga uringanlar. XXI asrga kelib, ta'lim falsafasi dunyoni ma'naviy o'zlashtirish eng ko'p samara berishini isbotladi. Bolaning kundalik fikrlash jarayoni, olamni ma'rifiy anglash, ma'naviy yuksalish uchun intilish – dunyo olimlari tomonidan tilga olingan falsafiy madaniyat mukammalligiga erishishning birlamchi shakllari sifatida o'rganildi.

Bola tug'ilgandan boshlab, olamni eng sodda tasavvurlar asosida o'zlashtiradi. His qilish, tasavvur, tushunish, anglab yetish, mohiyatga intilish va unga yetib borib, muayyan xulosaga kelish – tushunchaning shakllanish bosqichlariga ta'lim-tarbiya orqali ta'sir ko'rsatiladi. Bu ta'sir dastlab bolaning fikrlash jarayoniga qaratiladi. Shu bois, bugungi ta'lim falsafasida ta'lim maqsadi bilan mazmunini uzviylashtirish inson va jamiyat, inson va tabiatni yaxlit, uzviy, o'zaro bog'liq jarayonlar sifatida o'rganish va anglash imkonini beradi, deb talqin etilayotir. Tabiiy, ilmiy va gumanitar bilimlarni "tabiat – inson" tizimida uzviylashtirish esa muayyan didaktik tamoyillar ustuvorligini talab qiladi. Bu tamoyillar integratsiyalashgan texnologiya mazmunida aks etadi.

Shu o'rinda mutaxassislarning ta'kidlashicha, maktabgacha ta'lim tashkilotlariga innovatsion texnologiyalarni joriy etish nafaqat mumkin, balki zarur. Shu bilan birga, maktabgacha yoshdagi bolalarning ta'lim jarayonida qo'llaniladigan pedagogik texnologiyalarga bir nechta qat'iy talablar qo'yilganligini yodda tutish kerak. "Integratsiya" tushunchasi XVIII asrda ingliz faylasuf olimi G.Spenser tomonidan qo'llanilgan. Ilmiylik nuqtai nazaridan olib qaraganda integratsiyaning asosini olamning yaxlitligi va uni tashkil etuvchi qism (element)larning o'zaro aloqadorligi, munosabatlari tashkil etadi. Integratsiya masalasini pedagog olimlar va amaliyotchilar quyidagi yo'nalishlarda tadqiq etishni tavsiya etadilar:

- o'quv predmetlari doirasidagi mazmunni integratsiyalab o'rganish;
- turli o'quv predmetlaridan tahsil beruvchi shaxslarning faoliyatlarini integratsiyalash;
- ta'lim-tarbiya ishini tashkil etish shakllarini integratsiyalash va shu kabilar.

Bu yo'nalishlarning har birining aniq o'z maqsadi bo'lib, uni amalga oshirish uchun mos shakl, metod, vosita va shart-sharoitlarni talab etadi. Amaliyotda ulardan uyg'un holda foydalanilgandagina ko'zlangan maqsadga erishish mumkinligini ham shu o'rinda eslatib o'tish lozim.

Yaxlit tizimni tuzishda integratsiyalanuvchi aloqadorlik muhim ahamiyatga ega bo'lib, ularni ichki ilmiy aloqadorlik ham deb ataladi.

Tizimlashtirishdan ko'zlangan asosiy maqsad - ichki ilmiy aloqadorlikni tartibga keltirish yo'li bilan yaxlitlikni yuzaga keltirishdan iboratdir. Bu jarayonda hosil bo'ladigan yaxlitlik yangi sifat ko'rsatkichlariga ega bo'ladi.

Integratsiyalashgan texnologiya tarbiyalanuvchi faoliyatiga, bu faoliyatning samaradorlik ko'rsatkichi muntazam ortib borishiga yo'naltirilgan ekan, uning bosh maqsadi bilimlarni samarali o'zlashtirishdangina iborat emas. Aksincha, bilimlarni tarbiyalanuvchi eng qulay, oddiy tushuncha va tasavvurlardan murakkabga tomon boruvchi izlanish-intilishlari asosida uzluksiz o'zlashtirishini ko'zda tutadi. Oddiy mavzular asta-sekin murakkablashib, ma'lumot, tushuncha, tasavvurlar shaklidan yaxlit, mujassam bilim va malakaga aylanib boradi. Bu bilim hamda ko'nikmalardan bolalar zarur vaziyatlarda muayyan hayotiy muammoni hal qilishda bemalol foydalanish layoqati tarkib toptiriladi.

Guruhdan-guruhga ko'tarilish mobaynida predmetlar, mavzular, bilim va ko'nikmalar ham murakkablashib boradi. Eng muhimi, bu jarayonlar maktabgacha ta'lim tarbiyalanuvchilarini qiziqish va ehtiyojlarini e'tiborga olgan holda tashkil qilinadi. Shu yo'l bilan ular guruh xonalarida gullar haqida, bu o'simliklarning tuzilishi, ularni parvarishlash to'g'risida eng sodda tushunchalarni o'zlashtirib, o'zlariga yoqqan gullarni ko'paytirish ustida amaliy ish olib boradilar: novda kesib olish, uni suvli idishda ildiz otgunga qadar o'stirish va bahor oyida tuvakka o'tkazishni o'zlari bajaradilar. O'z gullari haqida matn tuzib, rasmini chizishlari, bog'bonlar bilan suhbat chog'ida gul va o'simliklarni, mevali daraxtlarni parvarishlash haqidagi tushunchalarini kengaytirishlari uchun sharoit yaratiladi. Bolalar mevalarning shifobaxsh xususiyatlari sog'liklari uchun nechog'lik katta ahamiyatga egaligini tushunib oladilar. Tabiatni asrash, uning sofligi, go'zal va beg'uborligi uchun muhim ahamiyat kasb etishi haqidagi tushunchalar ham tarkib topib boradi.

Maktabgacha ta'limning tizimi doirasidagi o'quv materialini integratsiyalash uch bosqichda amalga oshiriladi:

Mavzulararo integratsiya – alohida o'quv predmetlari ichidagi tushuncha, bilim va ko'nikmalar integratsiyasi.

Predmetlararo integratsiya – ikki va undan ziyod o'quv predmetlarining tamoyillari, tushunchalar va dalil va asoslarning tahlili.

Transpredmetli integratsiya – ta'lim mazmunining asosiy va qo'shimcha komponentlarining sintezi .

Bolalar integratsiyalash jarayonida hodisalar, predmetlar va taqqoslash kabi pog'onalardan o'tib, aniq xulosalarga, tushunchalardan bilimlarga, ko'nikmaga yetib borish ko'zda tutiladi.

Integratsiyalashgan mashg'ulotlarni tuzishda nimalarga e'tibor qaratish lozim va ular qanday tuziladi?

Integratsiyalashgan mashg'ulotlarni loyihalashda, avvalambor, mavzular uyg'unligiga e'tibor qaratamiz. Agar integratsiyalashgan mashg'ulotlarni bosqichlarga ajratadigan bo'lsak,

1-bosqich tayyorlov bosqichi bo'lib, bunda "O'yin" - o'yinlar, raqslar, qiziqarli o'yin-kulgilar shaklida guruhda o'tkaziladigan mashg'ulotlar.

2 - bosqich "Ekskursiya" -maqsadi atrofda dunyo va jamiyatni har tomonlama va ko'p qirrali o'rganish bo'lgan loyihalar.

3 - bosqich "Hikoya", bu orqali bolalar o'zlarining his-tuyg'ularini va his-tuyg'ularini nutq, vokal, yozish va boshqalar orqali tushuntirishni o'rganadilar.

4 - bosqich "Konstruktiv", bolani o'z mehnati bilan foydali narsalarni yaratishga o'rgatish: qushxona qurish, gul ekish va boshqalar.

Bugungi kunda hatto yaqin o'tmishda ham maktabgacha ta'lim tashkilotlarida biron bir intergasiyalashgan ta'limdan foydalanish haqida gap bo'lmaganligini tasavvur qilish juda qiyin. Hozirgi kunda kompyuter, planshet kabi ilg'or texnologiyalar maktabgacha yoshdagi bolalarni ajablantirmaydi.

References

1. Mamajonov I.G., Mamatov R.(2017) Germaniya davlati ta'lim tizimi. Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar ilmiy elektron jurnali. No6.
2. Qilichova M.Kh.(2021) Little features of foreign experience in education of children in preschool educational institutions. Journal American. (SJIF) Impact Factor-5.714. —Current research journal of pedagogies. Pp. 241-246.
3. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining —Maktabgacha ta'lim vatarbiyaning davlat standartini tasdiqlash to'g'risidagi VMQ 802-sonli Qarori. 2020-yil 22 dekabr. <https://galitravel.ru/doshkolnoe-obrazovanie-v-yaponii>.
4. O'zbekiston Respublikasining —Ta'lim to'g'risidagi qonuni. 2020 yil 23 sentyabr. 6. Fazilova D.X. Xorijiy tajribalardan foydalanish va innovatsion texnologiyalar modulidan o'quv-uslubiy majmua. Jizzax, 2021, 60-b